

**JADID MATBUOTIDA SIYOSIY MAVZULARNING
AKS ETISHI**

Halim SAIDOV,
*O‘zJOKU professori,
filologiya fanlari doktori*

Jadidchilik harakati hanuzgacha ma’rifatparvarlik harakati sifatida talqin etib kelinmoqda. Rostdan ham jadidlar maktab ochishgan, darsliklar yaratib, bolalarni yangicha usulda o‘qitishgan. Ularning jurnalistlik faoliyati tadqiqotlarida ham asosiy urg‘u ma’rifiy mavzudagi maqolalariga berildi. To‘g‘rirog‘i, jadidlarni shaxs sifatida o‘rganmaslik, faktlarni chuqur tahlil qilmaslik ularning siyosiy arbob sifatidagi siymolarini pardaladi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi jadid karvonboshilari, avvalo, mustamlakachiga qarshi kurash dasturini ishlab chiqqan siyosiy arbob edilar.

Aks holda chor Rossiyasi “Oxranka”si ularga “panislomist”, “panturkist” tamg‘asini bosmagan bo‘lardi. Hokimiyat bolsheviklar qo‘liga o‘tgach (Behbudiy qatldan so‘ng) avvalgi “ist”larga “anglizparast” ayblovi qo‘shildi, 1923-yilga borib uni eslaguvchilar ishdan haydalib, qamaldi. Chirkin siyosatni qarangki, ikki yildan so‘ng bugungi Qashqadaryo, Surxondaryo hududidagi milliy ozodlik harakatlarini (1925-1935-yillar) bostirish maqsadida Qarshi shahriga Behbudiyning nomini berishdi, to‘g‘rirog‘i uning nomidan foydalanishdi. Mustaqilligimiz arafasida jadidchilik, jumladan, Behbudiy mavzusi KGB tazyiqi ta’sirida biryoqlama talqin qilina boshladi. Istiqlolga erishganimizdan keyin uning nomi oqlangan bo‘lsa-da, “panislomist”, “panturkist”, “anglizparast” tamg‘asi olib tashlanmadi. Bu Fitratu Cho‘lponlarga ordenlar berilib, ularning ustozlari Behbudiy va Munavvarqori e’tibordan chetda qolganida anglashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida:

“...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145-yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi”, degan e’tirof jadidlardan tamg‘alarni butunlay olib tashladi.

Sobiq ittifoq davrida Behbudiyning muftiligi, Munavvar qorining Qur’onni yoddan bilishi, ya’ni dindorliklari ularning yurt miqyosidagi e’tiroflariga to‘sqinlik qilgan bo‘lsa kerak, degan fikrda edik. Ma’lum bo‘ldiki, Behbudiy Samarqand jadidlariga karvonboshi, Munavvar qori Toshkentda jadidlarga yo‘lboshchilik qilgan, vaqti kelganda “Haq olinur, berilmas” kabi da’vatlarni ayta olgan insonlar ham ular

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

edilar. Qolaversa, bu insonlar Zohiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi ko‘plab safdoshlarni atroflariga jamlagandilar.

Shu bois sovet davri siyosatiga oid kitoblarni tahlil etganimizda Behbudiy va Munavvar qorining faqat “anglizparastligi” emas, balki panislomizm va panturkizmning Turkistondagi vakillari sifatida ayblanganligiga guvoh bo‘ldik

Bu tamg‘aning tarixi Rossiya oxrankasining o‘tgan asr boshidagi xulosalariga asoslangandir. G‘oyaviy jihatdan “o‘zgacha” bo‘lgan sovetlar bu xulosalarni hukm sifatida qabul qilib, tuzum yiqilgunga qadar faol qo‘lladilar. Hatto, mustaqillikka erishganimizga o‘ttiz ikki yil bo‘lgan esada, ularning nomlarini ehtiyot bo‘lib ishlatadigan olimlarimiz hanuz yo‘q emas.

Buning sababi, fikrimizcha, jadidlarning asl maqsadlarini turlicha tushunish va talqin etishdadir. Masalan, ko‘pchilik olimlar jadidchilik harakatiga eskilik tarafdorlari “qadim”chilar qarshilik ko‘rsatishgani bois, ular tutgan yo‘riqqa nisbatan yangidir, deymiz. Boshqamiz Dukchi Eshon qo‘zg‘olonini ko‘z oldimizga keltirib, jadidchilik shu kurash tarziga nisbatan yangi harakat degan xulosa chiqaramiz. Negaki, o‘sha davr, xususan, jadidchilik haqida tadqiqotchilarning juda ko‘p maqolalari e‘lon qilindi, dissertatsiyalar yoqlandi. Biroq bu qarashlar tadqiqotchilarning bir (mustabid) jamiyatdan ikkinchi (mustaqil) jamiyatga o‘tish davridagi turlicha fikrlarga, ya‘ni jadidchilikka munosabati har xil ekanligiga asoslangandir.

Marhum ustoz, professor B.Qosimovning jadidchilik xarakteri–yo‘nalishi haqidagi o‘rinli fikriga e‘tibor qaratsak:

“Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma‘rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma‘rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad – jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchalarning asorati edi. Aslida esa:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi” .

Iqtibosdan o‘zimizga kerakli xulosa chiqaradigan bo‘lsak, demak, jadidchilik – ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy harakat bo‘lib, uning asosiy maqsadi mustaqillikka erishish bo‘lgan.

Unda jadidchilik qaysi harakat(lar)ga nisbatan yangi hisoblanadi?

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Savolga javob izlaganimizda “qadimchilik”ning harakat emasligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘lib qoladi. Mustamlakachiga nisbatan ko‘tarilgan turli qo‘zg‘olonlar (masalan, Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni) ham harakat darajasida bo‘lmay, balki stixiyali xarakterda edi.

Savolga javob esa o‘sha davrda dunyoda sodir bo‘lgan voqealar bilan bog‘liqdir. XIX asrda G‘arb davlatlari Osiyo va Afrika davlatlarini bosib, to‘g‘rirog‘i, bo‘lib oldilar. Bu haqda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat asarlarini va mustaqillikka erishgach ko‘pgina manbalarda, xususan, O‘zbekiston yangi tarixining sovet mustamlakachiligi davriga oid jildida, yuqorida nomi zikr etilgan kitobda ta’kidlandi. Sharq xalqlari ziyolilari, yurt fidoyilari mustamlaka zulmidan qutulishning chora-tadbirlarini qidira boshladilar. Ularning eng mashhuri islom bayrog‘i ostida birlashish (mustamlakachilar unga panislomizm deb nom berdilar) g‘oyasidir.

Fikrimizga dalil sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi fikrini keltirish o‘rinlidir: “Hayhot, hayhot, umumiy Osiyo qit‘asig‘a 600 milliyun qadar musulmon borki, andin o‘n miliyuni Osiyoi safro va jazirat-ul-Arabg‘a sokin va Usmonli hukumatig‘a tobe’, 9 miliyuni Erong‘a, 6 miliyuni Afg‘ong‘a, 2 miliyuni Buxoro, miliyuni Xiva, 1 miliyuni Bulujiston, 12 miliyuni Haydarobod degan, 1 miliyuni Ummon va miliyundan kami Jumhur hukumati islomiyasig‘a tobe’ bo‘lub, baqya 50 miliyuni Xitoy va 50 miliyuni inglilig‘a va 50 miliyun qadari, yana 40 miliyuni Jazoir, Bahri kabir musulmonlari ila barobar Inglis, Fransa, Kalandiya, Ispaniya, Rossiya va o‘zga davli(davlatlar – H.S.) nasroniyasig‘a tobe’. Biz Osiyoi vusto(o‘rta – H.S.) va shimoliy sokinlaridan Rossiya davlatig‘a to‘g‘ridan to‘g‘ri tobe’...»

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida yozilgan bu maqolada mustamlakachi panislomizm g‘oyasini ko‘rdi. Biroq Behbudiy Turkiston dardini islom dunyosi muammolari fonida ko‘targan. Islom bayrog‘i ostida birlashuv g‘oyasini Behbudiyning “Bayoni haqiqat” maqolasidagi parlament xususidagi fikrlari ham inkor etadi: “Biz istaymizki, Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar qo‘shilgan holda, o‘z boshlarig‘a Russiyani bir parchasi hisoblanadurg‘on Turkiston hukumati ta’sis etsak, o‘zimizni majlisi mushovaratomiz «parlamentarizm” bo‘lsun» .

XX asr boshida Turkiyadagi o‘zgarishlar turkistonga ham ta’sir qilgani bor gap. Shunda chor maxsus xizmatlari tomonidan turk birligi masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Bizga tanish bo‘lgan turkchilik harakati (g‘arblıklar uni panturkizm deb atadilar) ana shu asosda kelib chiqdi.

Jadid bobolar boshqa mustamlakada qolgan xalqlar singari yurtni ozod qilish uchun birovlardan yordam kutganlarini ham qoralash mumkin emas. Lekin, hayot shuni

ko‘rsatdiki, jadidlar na islomchilik, na turkchilik bayrog‘i ostida birlashib, mustamlaka asoratidan ozod bo‘lish qiyin ekanligini anglab yetdilar.

Fikrimizcha, jadidchilik harakati islomchilik (panislomizm), turkchilik (panturkizm) harakatlari kabi mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyasini o‘zida mujassam etgan bo‘lsa-da, lekin milliy-ozodlikka erishish yo‘li yuqoridagi harakatlarga nisbatan yangichadir. Istiqlolga o‘z-o‘zidan erishib bo‘lmasligini ular juda yaxshi anglar edilar. Buning uchun esa yangi maktablar ochib, unda asosan aniq fanlarga e‘tiborni kuchaytish, tegishli darsliklar yozish, muallimlar tayyorlash, yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish masalalari kun tartibiga qo‘yildi.

1917-yil fevral voqealari jadidlar siyosiy maydonda ochiq harakat boshlashdi va Turkiston muxtoriyati e‘lon qilindi. Behbudiyning fikrlari xotira bo‘lib qoldi: “...siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, lekin berilmas. Ya’ni, muxtoriyatni Turkiston bolalarining o‘zi birlashib, g‘ayrat ila olur. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo‘lidan kelsa bermaslar”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqoridagi dalillar jadidchilik harakatining siyosiy harakat bo‘lganligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://zarnews.uz/post/mahmudxoja-behbudiy-chog-ustida-kechgan-umr>
2. Бегали Қосимов. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент, “Маънавият”, 2002.
3. Маҳмудхўжа Бехбудий. Таърих ва жуғрофия // «Туркистон вилоятининг газети», 1908 йил, 30 ноябр.
4. Маҳмудхўжа Бехбудий. Баёни ҳақиқат // «Улуғ Туркистон» газетаси, 1917 йил 12 июн.
5. Маҳмудхўжа Бехбудий. Қозоқ қариндошларимизга очик хат // «Хуррият» газетаси, 1918 йил 26 январ.